Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 378
PEDAGOGIKA

TALABALARDA KOLLABORATIV MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK USULLARI: ILMIY MANBALAR TAHLILI

Gulra'no Mirolimjon qizi Badalova*
gulirano15@list.ru
✉ gulirano15@list.ru

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalari talabalarida kollaborativ madaniyatni shakllantirishga qaratilgan pedagogik usullar, yondashuvlar va ta'lim texnologiyalariga doir ilmiy manbalar tizimli tahlil qilinadi. Kollaborativ madaniyatning mazmuni talabalarning umumiy maqsad yo'lida hamkorlik qilishi, jamoaviy mas'uliyatni his etishi, o'zaro ishonchga asoslangan muloqotni tashkil etishi, fikrlar xilma-xilligini hurmat qilishi, vazifalarni muvofiqlashtirishi hamda nizoli vaziyatlarni konstruktiv hal etishga tayyorligi bilan izohlanadi. Ilmiy adabiyotlarni o'rganish asosida kollaborativ madaniyatning kommunikativ, ijtimoiy-psixologik, qadriyatli-motivatsion, faoliyatli va refleksiv tarkibiy qismlari tavsiflanadi.

Kalit so'zlar

kollaborativ madaniyat, kollaborativ kompetensiya, talabalar, oliy ta'lim, hamkorlikda o'qitish, jamoaviy faoliyat, pedagogik usullar, pedagogik fasilitatsiya, loyihaviy ta'lim, muammoli ta'lim, o'zaro o'qitish, tengdoshlar baholashi, raqamli ta'lim muhiti, refleksiya, kommunikativ kompetensiya, ijtimoiy-psixologik omillar, xorijiy tajriba.

DOI: 10.5281/zenodo.21743151

KIRISH

Dunyoda talabalarda kollaborativ madaniyatni rivojlantirish bo'yicha qator ilg'or ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. AQShda Harvard Universitetining "Collaborative Competence in Teacher Education" (O'qituvchilar tayyorlovida kollaborativ kompetensiyalar) loyihasi doirasida jamoaviy o'rganish, o'zaro o'rgatish (peer learning) va reflektiv suhbat asosida hamkorlik muhitini shakllantirishga doir metodik yondashuvlar ishlab chiqilgan[7]. Finlyandiyada Jyväskylä universiteti tomonidan olib borilgan "Group Dynamics in Pedagogical Contexts" (Pedagogik kontekstda guruh dinamikasi) loyihasida o'qituvchi va talabalar o'rtasida o'zaro ishonchli muhit yaratish asosida tanqidiy fikrlash va hamkorlik asoslarini mustahkamlashga qaratilgan tajriba ishlari o'tkazilgan[8]. Singapur Milliy Universitetida esa "Collaborative Learning Ecosystems in Higher Education" (Oliy ta'limda hamkorlikli o'rganish ekotizimlari) loyihasi asosida texnologik vositalar bilan integratsiyalashgan kollaborativ muhitlar ishlab chiqilgan[9: 34]. Bu tadqiqotlar mavzuning global darajadagi dolzarbligini va xalqaro ta'lim standartlari bilan uyg'unligini ko'rsatadi.

Respublikamizda oliy pedagogik ta'lim mazmunini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish, raqobatbardosh, ko'p tarmoqli bilim, amaliy ko'nikma va kasbiy kompetensiyalarga ega pedagog kadrlarni tayyorlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ta'lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuvning keng joriy etilishi talabalarning nafaqat nazariy bilimlarni o'zlashtirishi, balki ularni real kasbiy va ijtimoiy vaziyatlarda qo'llay olishini ham talab etadi. Shu nuqtayi nazardan talabalarda kollaborativ, ya'ni hamkorlikka asoslangan madaniyatni shakllantirish oliy pedagogik ta'limning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Kollaborativ madaniyat talabaning umumiy maqsadga erishish yo'lida boshqa ishtirokchilar bilan sama-

rali hamkorlik qilishi, vazifalarni o‘zaro taqsimlashi, jamoaviy mas’uliyatni his etishi, turli fikrlarga hurmat bilan munosabatda bo‘lishi va muammolarni birgalikda hal eta olishini ifodalaydi. Ushbu tushuncha oddiy guruhli faoliyatdan mazmunan keng bo‘lib, o‘zaro ishonch, ochiq muloqot, teng huquqli ishtirok, tashabbuskorlik, o‘zaro yordam va kollektiv natijaga daxldorlik kabi qadriyatlarni qamrab oladi.

Kollaborativ madaniyatning tarkibiy tuzilishida qadriyatli-motivatsion, kognitiv, kommunikativ, faoliyatli va refleksiv komponentlar muhim o‘rin tutadi. Qadriyatli-motivatsion komponent hamkorlikka ijobiy munosabat va umumiy natijaga erishish istagini anglatadi. Kognitiv komponent jamoaviy faoliyat, guruh dinamikasi, muloqot va nizolarni boshqarish haqidagi bilimlarni qamrab oladi. Kommunikativ komponent fikrni aniq ifodalash, faol tinglash, dalillash va konstruktiv fikr bildirish ko‘nikmalarida namoyon bo‘ladi. Faoliyatli komponent vazifalarni rejalashtirish, rollarni taqsimlash va umumiy mahsulot yaratishga yo‘naltiriladi. Refleksiv komponent esa talabaning o‘z faoliyati va guruhdagi ishtirokini tahlil qilishi bilan tavsiflanadi.

Pedagogika oliy ta’lim muassasalarida kichik guruhlarda ishlash, loyihaviy va muammoli ta’lim, interaktiv seminarlar, o‘zaro o‘qitish, tengdoshlar baholashi, debat, keys-stadi va kollektiv refleksiya kabi metodlardan foydalanish kollaborativ kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Biroq talabalarni shunchaki guruhlarga ajratish hamkorlik madaniyatini avtomatik ravishda shakllantirmaydi. Jarayonda har bir ishtirokchining vazifasi, roli, individual hissasi va jamoaviy mas’uliyati aniq belgilanishi lozim.

Raqamli texnologiyalar ham kollaborativ faoliyat uchun keng imkoniyat yaratadi. Bulutli platformalar, virtual doskalar, videokonferensiyalar va birgalikda tahrirlanadigan elektron hujjatlar orqali talabalar masofadan turib ham umumiy loyihalarni bajarishi mumkin. Shu bilan birga, raqamli hamkorlik pedagogik maqsad, muloqot etikasi va baholash mezonlari bilan ta’minlanishi zarur.

Germaniya pedagogik oliy ta’limida kollaboratsiya fenomeni alohida diqqat markazida turadi. Xususan, K. Oers va A. Renkl kabi olimlar kollaborativ o‘rganish va madaniyatni o‘rgatishda strukturaviy yondashuv tarafdoridirlar [1: 47]. Tadqiqotlarida jamoadagi har bir ishtirokchining rollari, o‘zaro bog‘liqligi va o‘rganish samaradorligi tahlil etiladi. Shu bilan birga, ular o‘qituvchining roli faqat bilim beruvchi emas, balki madaniy vositachi sifatida belgilanishini ta’kidlaydilar [1: 51].

Ilmiy manbalarda “pedagogik hamkorlik” tushunchasi asosida talabalarning shaxsiy faolligini rivojlantirish, mustaqil fikrlash va kommunikativ madaniyatni shakllantirishga e’tibor qaratiladi. Jumladan, E. V. Bondareva, M. A. Danilova va S. G. Voronina kabi olimlar talabalarning hamkorlikdagi o‘rganish faoliyati orqali ijtimoiy-axloqiy qadriyatlar singdirilishini ta’kidlaydi [2: 38].

Ayrim ilmiy adabiyotlarda“kooperativ o‘qitish” (Kooperatives Lernen) tushunchasi orqali kollaborativ madaniyat shakllanishi tahlil qilinadi. Masalan, H. Mandl va B. Gruber tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ta’limdagi kooperatsiya tamoyillariga asoslangan yondashuvlar talabalarning analitik tafakkurini va ijtimoiy o‘zaro ta’sirini kuchaytirishga yordam berishi ta’kidlanadi [3:69]. D. Fischer va T. Hesse nemis oliy ta’lim tizimida raqamli platformalar yordamida amalga oshirilayotgan virtual kollaboratsiya tajribasini tahlil qilib, bu jarayonlar orqali talabalarda madaniyatlararo muloqot ko‘nikmalari shakllanishini aniqlaganlar [4: 23].

So‘nggi yillarda axborot-kommunikatsion texnologiyalar asosidagi kollaborativ o‘qitish uslublari keng tarqalmoqda. E. A. Zlotina raqamli ta’lim muhitida “virtual hamkorlik modeli”ni ilgari surib, talabalarning masofaviy hamkorligi orqali bilim olish sifati oshishini ko‘rsatib bergan [5: 44]. Bundan tashqari, rus tadqiqotchilari kollaborativ madaniyatni shakllantirishda ijtimoiy-psixologik omillarga, xususan, ishonch, empatiya va ijtimoiy mas’uliyatga alohida urg‘u beradilar. A. V. Mudrikning ijtimoiy pedagogika bo‘yicha ishlari aynan shunday jihatlarni chuqur tahlil qiladi [6:53–55].

Talabalarda o‘zaro ishonch, madaniyatlararo muloqot, mas’uliyat va empatiya ko‘nikmalarini shakllantirish uchun mashg‘ulotlarga psixologik treninglar, rollar ijro etish (role-play), diskussiya va debat shakllidagi metodlarni kiritish tavsiya etiladi. Bu Rossiyada keng qo‘llanilayotgan tajriba bo‘lib, ayniqsa shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni qo‘llab-quvvatlaydi [6:55].

O‘qituvchi kollaborativ madaniyat targ‘ibotchisi sifatida nafaqat bilim beruvchi, balki madaniy vositachi bo‘lishi lozim. Bu borada o‘qituvchilarning o‘zlari uchun ham malaka oshirish kurslari, xorijiy tajriba almashinuvi, onlayn seminarlar va tarmoq (networking) loyihalari tashkil etilishi zarur.

Yuqoridagi tahlillar asosida talabalarda kollaborativ madaniyatni shakllantirish masalasi zamonaviy

ta’limning muhim strategik yo‘nalishlaridan biri ekanligini tasdiqlash mumkin. Germaniya va Rossiya olimlarining tajribasini o‘rganish asosida aniqlanishicha, hamkorlik madaniyati nafaqat ta’lim jarayonida, balki shaxsiy rivojlanish va kasbiy ijtimoiylashuvda ham asosiy omil sifatida namoyon bo‘ladi. Ilmiy manbalar tahlili asosida quyidagi ilmiy-nazariy va amaliy xulosalarni shakllantirish mumkin:

- Kollaborativ **madaniyat** — bu jamoadagi ishtirokchilar o‘rtasida o‘zaro ishonch, mas’uliyat, fikr almashish va birgalikda qaror qabul qilish kabi qadriyatlarga asoslangan pedagogik muhitdir.
- Germaniya tajribasi ko‘proq texnologik va strukturaviy yondashuvlarga asoslanib, talabalarning analitik fikrlashi va loyiha asosidagi o‘qitishni ilgari suradi.
- Rossiya tajribasi esa shaxsga yo‘naltirilgan, empatiya, ijtimoiy mas’uliyat va kommunikativ madaniyatga asoslangan yondashuvlarni o‘z ichiga oladi.
- O‘zbekiston ta’lim tizimida hali ham frontal va monologik o‘qitish shakllari ustuvor bo‘lib, hamkorlikka asoslangan faol metodlar yetarlicha keng tatbiq etilmayapti.

XULOSA

Yuqorida tahlillar asosida O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida zamonaviy, ochiq va hamkorlikka asoslangan ta’lim muhiti shakllanishi mumkin. Bu esa nafaqat talabalarning shaxsiy va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantiradi, balki jamiyatda fuqarolik madaniyatining yuksalishiga ham xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Oers B., Renkl A. Kooperatives Lernen in der Hochschulbildung: Konzepte, Methoden und Wirkungen. Wiesbaden: Springer VS, 2016. -p. 212.
2. Данилова М. А., Бондарева Е. В., Воронина С. Г. Формирование культуры педагогического сотрудничества в условиях цифровой образовательной среды. // Современные проблемы науки и образования, №6, 2020. -с. 36–44.
3. Mandl H.,Gruber H. (2011). Lernen durch Kooperation: Psychologische und didaktische Grundlagen. München: Oldenbourg Verlag, 2011. -p. 185.
4. Fischer D., Hesse T. Digitale Kollaboration in der Hochschullehre: Möglichkeiten und Herausforderungen. // Zeitschrift für Medienpädagogik, Heft 2, 2019. -p. 22–31.
5. Злотина Е. А. (2021). Виртуальная коллаборация как средство формирования профессиональных компетенций студентов. // Информационные технологии в образовании, №4, 2021. -с. 42–47.
6. Мудрик А. В. (2010). Социальная педагогика: Учебник для вузов. Москва: Академический проект, 2010. - с.336.
7. https://www.gse.harvard.edu
8. https://studyguide.jyu.fi/2024/en/courseunit/lpss018/?utm_source=
9. Harris S. The Learning Ecosystems Framework | Literature Review// The Economist Group, 2022. -p. 34